

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“ MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI
“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASI BO'YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Diplom loyihasining mavzusi: “Konveroll universal” MCHJ sharoitlari uchun “1130303 Kronshteyn” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta'minot vositalari konstruksiyalarini ishlab chiqish.

Yo'nalish: Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jixozlash va avtomatlashtirish

4-kurs 113-14 guruh talabasi:	A.Jumanov
Kafedra mudiri:	X.Akbarov
Rahbar:	A.Axunjanov
Maslaxatchilar:	
Texnologik qismi:	A.Axunjanov
Konstruktorlik qismi:	A.Axunjanov
Xayot faoliyati xavfsizligi qismi:	N.Zulunov
Iqtisodiy qismi:	Z.Teshaboyeva

Andijon – 2018 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO'YICHA

T O P S H I R I Q

Jumanov Azizbek Avazbek o'g'li

1. Diplom loyihasining mavzusi: “Konveroll universal” MCHJ sharoitlari uchun “1130303 Kronshteyn” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta'minot vositalari konstruktsiyalarini ishlab chiqish.

Institut bo'yicha 2018 yil 17-apreldagi 88-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, qarorlari, farmoyishlari, VM qarorlari, ilmiy-texnik adabiyotlar, internet ma'lumotlari, detal ishchi chizmasi, ishlab chiqarish xajmi.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

1) Kirish. O'zbekistonning rivojlanishda mashinasozlik sanoatining roli ahamiyati, qaror va farmonlar, diplom loyihasining maqsad va vazifalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

2) Umumiy qism. Detalning xizmat vazifasi, ishlab chiqarish turini aniqlash va boshqalar.

3) Texnologik qism. Zagatovka olish turini tanlash, texnologik jarayon marshuritini ishlab chiqish, detal konstruktsiyasini texnologiklikka taxlili, zagatovkaga ishlov berishda qo'yim xisobi, kesish maromlarini xisoblash, vaqt me'yorini xisoblash.

4) Konstruktorlik qismi. Dastgox moslamasi, kesuvchi asbob va o'lchov vositalarini bayon va xisoblari.

5) Xayot faoliyati xavfsizligi qismi. Loyihalanayotgan ishchi joyini mehnat sharoitlarining ta'rifi, ishlab chiqarish joyida yoritish tizimini tanlash, ventilatsiya tizimini tanlash, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, aloqa yong'in signalizatsiya tizimi va boshqalar, mexnat xavfsizligi bo'yicha barcha talablar va qonun qoidalar.

6) Iqtisodiy qism. Texnologik jarayonning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

7) Xulosa. Bajarilgan diplom loyihasi bo'yicha xulosalar va takliflar yoritiladi.

8) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. Bajarilgan diplom loyihasi bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

9) Ilovalar. Spetsifikatsiyalar va texnologik jarayon xujjatlari.

4. Diplom loyihasining chizmalari ro'yhati:

1. Detal chizmasi
2. Zagotovka chizmasi.
3. Texnologik sozlash kartalari.
4. Moslama chizmasi.
5. Kesuvchi asbob chizmasi.
6. O'lchov vositasi yoki uchastka plani.

5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha maslahatchilar:

№	Diplom loyihasining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi va ismi
1	Texnologik qism	11.01.18	14.04.18		A.Axunjanov
2	Konstruktorlik qismi	14.04.18	10.05.18		A.Axunjanov
3	Xayot faoliyati xavfsizligi qismi	10.05.18	21.05.18		N.Zulunov
4	Iqtisodiy qism	10.05.18	21.05.18		Z.Teshaboyeva

6. Topshiriq berilgan sana :

11.01.2018

Rahbar:

A.Axunjanov

(imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi

A.Jumanov

(imzo)

Kafedra mudiri

X.Akbarov

(imzo)

MUNDARIJA

KIRISH	5
1. UMUMIY QISM	7
1.1. Detalni xizmat vazifasi	7
1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash	7
1.3. Detal tuzilishining texnologikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari	9
2. TEXNOLOGIK QISM	11
2.1. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash	11
2.2. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish	12
2.3. Zagatovkaga ishlov berishda qo'yim hisobi	14
2.4. Kesish maromlarini hisoblash	16
2.5. Vaqt me'yorini xisobi	41
3. KONSTRUKTORLIK QISM	45
3.1. Dastgoh moslamasini bayoni va hisobi	45
3.2. Nazorat moslamasini bayoni va xisobi	48
3.3. Kesuvchi asbobni bayoni va hisobi	49
4. XAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	52
5. IQTISODIY QISM	60
XULOSA	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	67
ILOVALAR	68

KIRISH

Xar bir mamlakatning shu jumladan bizning mustaqil O'zbekistonimizning iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiy ravnaqi barcha xo'jalik ishlar darajasining ko'tarilishi orqali belgilanadi. Bu ayniqsa xalq xo'jaligining yetarli tarmoqlaridan bo'lmish mashinasozlikka taaluqlidir. Shuning uchun mashinasozlik rivojlanishiga umumiy ishlab chiqarishni rivojlanishiga nisbatan ortiqroq e'tibor beriladi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni tasdiqlandi.

2018-yil O'zbekiston Respublikasida "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili" deb e'lon qilingani munosabati bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Shu yildan mashinasozlik sanoatini rivojlantirish bo'yicha yangi qarorlar va dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Bunday oqilona rejani amalga oshirish davlatning moddiy bazasiga chambarchas bog'liq. Bugungi kunda O'zbekiston jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatdir. Davlatimiz rahbariyati tomonidan tanlab olingan taraqqiyot strategiyasi raqobatdosh, eksportbop hamda import o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib, u sanoatning barqaror va mutanosib ravishda o'sishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash asosida uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Davlatlarning moddiy bazalarni boyitish maxsulot ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga boliq shuning uchun xozirgi

davrda ishlab chiqarishni takomillashtirish uchun barcha ishlar tomonidan yana bir qator qaror va farmoishlar qabul qilindi. Jumladan Qorqalpog'iston viloyatida tashkil qilalayotgan cho'yan quyish zavodi , Angren cho'yan quyish zavodi, Jizzax mashinalar ishlab chiqarish zavodi. Avtomobilsozlik, shu jumladan, dvigatel hamda ehtiyot qismlar ishlab chiqarish, neft-gaz mashinasozligi, zamonaviy qishloq xo'jaligi mashinasozligi, qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektronika asboblari ishlab chiqarish, farmatsevtika va mikrobiologiya, oziq-ovqat, to'qimachilik, charm-poyabzal sanoati hamda boshqa bir qator mutlaqo yangi tarmoqlarning yo'lga qo'yilishi bunga zamin yaratdi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikamiz mashinasozligi oldida yaqin yillarda mo'ljallagan ulkan va ma'suliyatli vazifalar turibdi. Bular jumladan xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yuqori darajasida ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan energiya va metalni iqtisod qilish texnologiyalarini keng qo'llash, mashinasozlik mahsulotlarini texnik darajasini va sifatini oshirish, zararli va og'ir qo'l mehnatini yengillashtiruvchi mashina va jixozlarni chiqarish, materiallarga ishlov berish dastgohlari sifatini yaxshilash.

1. UMUMIY QISM.

1.1 Detalni xizmat vazifasi.

“Kronshteyn” mashinasozlikda, sanoatda, qishloq xojaligidagi mashina, mexanizm va uzellarda juda ko'plab foydalanadi. Kronshteynlarga bazaviy detal sifatida mexanizm yoki uzelnining qolgan detallari maxkamlanadi. Shunga asosan maxkamlanuvchi yuzalar aniqligi yuqori bo'lsa, bazi yuzalariga zagotovka xolatidan keyin ishlov berilmashi mumkin. Uning materiyali Сталь 5 GOST 380-81, og'irligi $m=2.8$ kg. Bunday detallar mashina, gidravlik qurilmalarda boshqaruv tizimining buruvchi, kotaruvch elementi sifatida ishlatiladi.

Detalning asosiy yuzalari S, T va N yuzalar bo'lib, yuza g'adir-budirligi Ra 0.8 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 7 kv dadir. K va J yuzalar aniqligi Ra3.2. Qolganyuzalar uchun 12.5

Сталь 5 ning kimyoviy tarkibi (GOST 380-81),

1.1-jadval

Po'lat markasi	S	S _i	M _n
Сталь 5	0.04	0.17-0,37	0.35-0,65

Сталь 5 ning mexanik xossalari

1,2-jadval

Po'lat markasi	Mexanik xossalari					
	v_g , kg/mm ²	G_{ots} , kg/mm ²	δ_s , %	Ψ , %	d_n , kg/mm ²	HB
Сталь 5	64–76	36	31	55	8	143

1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash.

Har bir mashinasozlik korxonasi bir yil davomida ishlab chiqarishga kerak bo'lgan mahsulot va zaxira qismlarining ma'lumotiga ega. Bu ma'lumot ishlab chiqarish dasturi deb ataladi va unda ma'lumotni turi, soni, o'lchami va materiali

to'g'risida ham etarlicha axborot bor. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish dasturiga asosanssexlar bo'yicha ishlab chiqarish dasturi tuziladi. Har bir mahsulot umumiy ko'rinishining chizmasi, detallarning ishchi chizmasi, yig'uv chizma, spetsifikatsiyalar va texnik talablar bilan boyitiladi.

Ishlab chiqarish dasturining xajmi, mahsulot tasnifi, jarayonning texnik va iqtisodiy shartlariga asosan shartli ravishda uchta ishlab chiqarish turi mavjud: donali, seriyali, yalpi. Har bir ishlab chiqarish turi o'ziga xos tashkiliy shaklga ega. Shuni aytish kerakki, bitta korxonada xar-hil ishlab chiqarish turlari bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish turi va unga to'g'ri keladigan ishni tashkil qilish shakli texnologik jarayonni tasnifini hamda uning tuzilishini aniqlaydi. SHuning uchun ham ishlab chiqarish turini aniqlash detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayonni loyixalashni boshlang'ich asosiy bosqichidir. Ishlab chiqarish turini jadvallar usuli bilan aniqlaganda detalning og'irligi va yillik ishlab chiqarish dasturi talab qilinadi.

Bunda $N=10000$ dona va $m=2.8$ kg bo'lganda ([5],2j,18b) ishlab chiqarish turi o'rta seriyali deb aytishimiz mumkin.

Berilgan yillik dasturga asosan ishlab chiqarish qadamini quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi.

$$t_b = \frac{F_g \cdot 60}{N} = \frac{4029 \cdot 60}{10000} = 24 \frac{daq}{dona}$$

bu erda: $F_g = 4029$ soat – dastgohlarni bir yillik haqiqiy ishlash vaqti fondi;
 $N=10000$ dona – yillik ishlab chiqarish dasturi.

Bo'limdagi ish tartibi 2 smenali. Seriyali ishlab chiqarish turida detallarni partiyalarga bo'lib ishlov berish sababli partiyadagi detallar sonini hisoblab topish talab qilinadi.

$$n = \frac{N \cdot a}{F} = \frac{10000 \cdot 3}{254} = 118 \text{ dona}$$

bu erda: $a=3,6,12,24$ kun – partiyadagi detallarni ishlov berishga kiritilish davri;
 $F=254$ kun – bir yildagi ishchi kunlar soni.

1.3. Detal tuzilishining texnologikligi va uning miqdoriy ko‘rsatkichlari

Ishlab chiqarish ob’ekti bo‘lgan mahsulot konstruksiyasini texnologikligi quyidagi nuqtai nazarlar bo‘yicha taxlil qilinadi: qo‘llaniladigan materialning ko‘rinishi va turi, xom–ashyoni ko‘rinishi va tayyorlash uslublari, qo‘llaniladigan ishlov berish yig‘ish tayyorlash korxonasi tashqarida montaj qilish va sinashni texnologik usullari va ko‘rinishlari, progressiv texnologik jarayonlar, shuningdek kam mehnat va energiya sarflanadigan, chiqindisiz tipaviy texnologik jarayonlardan foydalanganlik darajasi, jarayonlarni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish imkoniyati, unifikatsiyalangan yig‘ish birikmalari va detallarni qo‘llash darajasi, tayyorlovchi korxonani o‘ziga xos xususiyatlari, talab qilingan ishchilar klafikatsiyalari.

Detalning ishchi chizmasini taxlil qilish shuni ko‘rsatadiki detailni ishchi vazifasini o‘zgartirmagan holda uni tuzilishi elementlarini qisqartirish imkoniyati yo‘q. Detal tuzilishi xom–shayo olishni ratsional usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Ishlov berishda qiyinchilik tug‘diradigan va maqsadga muvofiq bo‘lmagan yuzalar aniqlanadi. Zagotovka tuzilishi va mustaxkamligi va uni unumdorligini yuqori bo‘lgan ishlov berish usullaridan foydalanishni chegaralanmaydi. Materialni ishlov beriluvchanligi tig‘li va obraziv asboblardan foydalanishga imkon beradi. Texnologiklik va aniqlik bo‘yicha taxlil texnologik jarayon marshrutini tuzish dastgohlarni nazorat ishlarini aniqlashga negiz bo‘lib qoladi.

Detal konstruksiyasini texnologikligi — konstruksiyasini shunday xossalari yig‘indisiki bunda bir xil sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan bir xil sharoitda tayyorlangan va ekspluatatsiya qilinadigan o‘xshash konstruksiyasiga ega bo‘lgan

maxsulotga nisbatan yanada samarador texnologiyalar bilan ishlov berish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Detalni texnologilikka taxlil qilish ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni muxim masalasidir.

Bajarilgan taxlil quyidagi koeffitsentlarni aniqlashga imkon beradi. Konstruktiv elementlarni unifikatsiyalanganlik koeffitsenti.

$$K_{y.e} = \frac{Q_{y.e}}{Q_e}$$

bu erda:

$Q_{y.e}$ va Q_e unifikatsiyalangan konstruktiv elementlar soni va detalni hamma elementlar soni

$$K_{m.e} = \frac{Q_{y.e}}{Q_e} = \frac{6}{20} = 0.3$$

Ishlov berish aniqligi koeffitsenti.

$$K_a = 1 - \frac{1}{A_{yp}}$$

bu erda:

$$A_{yp} = \frac{(n_1 + 2n_2 + 3n_3 + \dots + 19n_{19})}{\sum_1^{19} n_i} = \frac{7 \cdot 3 + 9 \cdot 2 + 10 \cdot 15}{20} = 7.8$$

$$K_a = 1 - \frac{1}{A_{yp}} = 1 - \frac{1}{9.4} = 0.8$$

YUzalar g'adir–budurlik koeffitsenti.

$$K_u = \frac{1}{III_{yp}}$$

bu erda:

$$III_{yp} = \frac{(0.01n_1 + 0.02n_2 + \dots + 40n_{13} + 80n_{14})}{\sum_1^{14} n_i} = \frac{0.8 \cdot 1 + 3.2 \cdot 2 + 12.5 \cdot 15}{20} = 9.9$$

$$K_u = 1 - \frac{1}{III_{yp}} = 1 - \frac{1}{9.9} = 0.9$$

Bajarilgan taxlil yig'uv birikmaning berilgan detalni to'g'ri loyixalashga imkon beradi

2. TEXNOLOGIK QISM

2.1. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash

Zagotovkalar toza va xomaki zagotovkalarga bo‘linadi. Toza zagotovka deganda tayyorlangandan keyin kesib ishlanmaydigan, o‘lchamlari va tozaligi tayyor detal chizmasida ko‘rsatilgan o‘lcham va tozalikka to‘g‘ri keladigan zagotovkalar tushuniladi. Xomaki zagotovkalar chizma talablariga muvofiq keladigan o‘lcham, aniqlik va tozalikdagi detal hosil qilish maqsadida qo‘yim kesib olish uchun mexanik ishlanishi zarur bo‘lgan zagotovkalardir.

Mashina detallari uchun zagotovkalar asosan quyidagi usullar bilan tayyorlanadi:

qora va rangli metallardan quyish yo‘li bilan;

bosim bilan ishlash (bolg‘alash va shtamplash) orqali;

qora va rangli metallar prokatidan;

metallokeramikadan (kukun metallurgiyasi yo‘li bilan);

payvandlash – zagotovka qismlarini bir butun qilib ulash yo‘li bilan;

metallmas materiallardan (plastik massalar va boshqalardan).

Zagotovka olish usulini tanlash, detalni o‘lcham va materiali, ishchi vazifasi, uni tayyorlashga texnik talablar, yillik dastur va umumiy tuzilishi kabi omillar belgilab beradi. Bu masalani xal qilishda zagotovka o‘lchami va tuzilishi detalni o‘lcham va tuzilishiga maksimal yaqin bo‘lishini ta‘minlash kerak. Lekin shuni unutmaslik kerakki, zagotovka aniqligini oshirish va tuzilishini murakkablashtirish uni tannarxini oshishiga olib keladi. SHuning uchun ham zagotovka olishni optimal usuli zagotovka tannarxi kam bo‘lgandagi usulidir.

Zagotovka olishni mavjud usullarini tahlil qilib, berilgan ishlab chiqarish sharoitida detalimiz uchun zagotovkani quyish yo‘li bilan olamiz.

2.2. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish

2.1-jadval

Operatsiya №	O'tishlar №	Operatsiya va o'tshmlar nomi va mohiyati.	Kesish dastgohi nomi	Moslam a turi	Kesuvchi asbob nomi	O'lchov asbobi	
1	2	3	4	5	6	7	
005	Vertikal frezalash A o'rnatish		Vertikal frezalash dastgohi 6H12ПБ	Tiski	Torets freza	Shtan gen sirkul (Shs 126)	
	1	H yuza frezalansin.					
		B o'rnatish					
	2	G yuza toza frezalansin					
		C o'rnatish			Torets freza		
	3	E yuza frezalansin.					
		D o'rnatish					
	4	F yuza frezalansin					
010	Vertikal frezalash A o'rnatish		Vertikal frezalash dastgohi 6H12ПБ	Tiski	Torets freza	Shtan gen sirkul (Shs 126)	
	1	A yuza frezalansin					
	2	C yuza frezalansin					
	3	D yuza frezalansin					
	4	B yuza frezalansin					
	5	I1 yuza frezalansin					
		B o'rnatish		Vertikal frezalash dastgohi 6H12ПБ	Maxsus Tiski	Torets freza	Shtan gen sirkul (Shs
	1	I2 yuza frezalansin					

						126)
015		Gorizontal frezalash A o'rnatish	Gorizontal frezalash dastgohi	Maxsus Tiski	Disk freza	Shtan gen sirkul (Shs 126)
	1	K yuza frezalansin B o'rnatish				
	1	J yuza frezalansin				
	2	L yuza frezalansin				
020		Vertikal parmalash operatsiyasi A o'rnatish	Vertikal parmalash dastgohi 2A135	Maxsus mosla- ma	Parma d=6 Parma D=9 Zenker D=11 Razvertka D=12	Shtan gen sirkul (Shs 126)
		M teshik parmalansin B o'rnatish				
	1	N teshik parmalansin				
	2	N teshik zenkerlansin				
	3	N teshik razvyortkalansin,				
025		Radial parmalash	Radial parmalash dastgohi 257	Maxsus mosla- ma	Parma D=3 Zenker D=5 Razvertka D=6	ShS MS
	1	2ta S teshik parmalansin				
	2	2ta S teshik zenkerlansin				
	3	2ta S teshik razvyortkalansin,				

4	2ta T teshik parmalansin			Parma D=4	ShS MS
5	2ta T teshik zenkerlansin			Zenker D=6	
6	2ta T teshik razvyortkalansin,			Razvertka D=7	

2.3. Zagatovkaga ishlov berishda qo'yim hisobi

1. $a=36$, $b=60$, $h=40$ bo'lgan o'zaro tekis parallel G va H yuza uchun qo'yim miqdorini hisoblaymiz. Zagatovka quyma usuli bilan olingan.. Ishlov berish texnologik marshruti qora frezalashdan iborat.

Tekis yuzali detallarga ishlov berishda qo'yimlarni aniqlash quyidagi formula yordamida topiladi [7, 28 b.]:

$$2z_{i_{min}} = 2(R_{z_{i-1}} + T_{i-1} + \rho_{i-1} + \varepsilon_i)$$

Zagatovka uchun profilning notekisliklari balandligi R va sirt qatlamdagi nuqsonlar chuqurligini T jadvaldan olamiz:

- 1) zagatovka uchun: $R=320$ mkm; $T=320$ mkm [7, 10 b.];
- 2) qora frezalash uchun: $R=240$ mkm; $T=240$ mkm [7, 10 b.];

Dopusklar miqdori:

- zagatovka uchun $\delta=500$ mkm;
- qora frezalash uchun $\delta=125$ mkm;

Fazoviy chetlanishlarning umumiy yig'indisi quyma zagatovkalarni yo'nish jarayoni quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\rho_{i-1} = \sqrt{\rho_{cm}^2 + \rho_{kop}^2}$$

$$\rho_{cm} = \delta = 500 \text{ mkm}$$

$$\rho_{kor} = \rho_k = \Delta_{kr} l = 4 \cdot 120 = 480 \text{ mkm};$$

$$\Delta_{kr} = 4 \text{ mkm} [7, 16 \text{ b.}]$$

$$\rho_{i-1} = \sqrt{500^2 + 480^2} = 843$$

Qoldiq fazoviy chetlanishlar:

- qora frezalashdan so'ng: $\rho_1 = 0,6 \cdot 843 = 505 \text{ mkm};$

$$\varepsilon_i = \sqrt{\varepsilon_6^2 + \varepsilon_3^2}$$

$$\varepsilon_6 = 0;$$

$$\varepsilon_3 = 320 \text{ mkm}. [4, 23 \text{ b.}]$$

$$\varepsilon_i = \sqrt{0^2 + 320^2} = 320 \text{ mkm}$$

- qora frezalashdan so'ng: $\varepsilon_1 = 0,05 \cdot 320 = 16 \text{ mkm};$

Qo'yimlarning minimal miqdorini hisoblaymiz:

- qora frezalash: $2z_{min_2} = 2(640 + 505 + 320) = 2930 \text{ mkm}$

Zagotovkaning hisobiy o'lchamlarini aniqlaymiz:

2.2-jadval

Texnologik ishlov berish	Qo'yim elementlari, mkm				$2z_{min}$	h_b , mm	Dopusk δ , mkm	CHegaraviy o'lcham, mm		Qo'yimlar chegarasi, mkm	
	R_z	T	P	E				d_{min}	d_{max}	$2z_{min}^{ch}$	$2z_{max}^{ch}$
Zagotovka	320	320	500	320		43	500	42,5	43,5		
Qora frezalash	240	240	125	16	3	40	125	39,875	40,125	2625	3375

Quyimlarning eng katta va eng kichik qiymatlari yig'indisini aniqlaymiz:

$$2Z_{min}^{ch} = 2625 \text{ mkm}; 2Z_{max}^{ch} = 3375 \text{ mkm}.$$

Hisoblar to'g'riligini tekshiramiz.

$$2Z_{max}^{ch} - 2Z_{min}^{ch} = \delta_z - \delta_d$$

$$3375 - 2625 = (500 - 125) \cdot 2$$

$$750 = 750$$

Jadval usuli bilan mexanik ishlov berish uchun qoldirilgan qo'yim miqdorini hisobi (hamma qolgan yuzalar uchun). ([7], 178 b.)

2.4-jadval

Ishlov beriladigan yuza	O'lcham	Qo'yim		Chetlanish, MM
		Jadval, mm	Hisobiy, mm	
A va B	68 h9	2	4	+0.2 -0.2
C va D	40 h9	1,5	3	+0.2 -0.2
F va E	120	2	4	+0.2 -0.2
K	20	2	4	+0.2 -0.2
J	44	2	4	+0.2 -0.2

2.4. Kesish maromlarini hisoblash

005. Vertikal frezalash operatsiyasi.

A o'rnatish.

1-o'tish. H yuza $l=120\text{mm}$, $b=68\text{mm}$, $h=1.5\text{mm}$ o'lchamni ushlab qora frezalansin.

Dastgoh 6H12ПБ vertikal frezalash dastgohi. Ishlov berilayotgan material CT 5, $\sigma_B=335\text{MPa}$.

Kesuvchi asbob torets freza $D=125\text{mm}$, GOST 24360-80. Kesuvchi qismi materiali T15K6, tishlar soni $z=12$ ta; Geometrik parametrlari: $\varphi=60^\circ$, $\varphi_1=5^\circ$, $\varphi_0=20^\circ$, $\lambda=+5^\circ$ $\gamma=-5^\circ$ $\alpha=12^\circ$

1. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

2. $t=h=1.5\text{mm}$

2.Surish miqdori

$S_z=0.09-0.18\text{ mm/ayl}$ ([3], 2.78-j, 86-b)

$S_z=0.15$ qabul qilamiz

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v ;$$

T –frezani turg'unlik davri, $T=180\text{ daq}$ ([3], 2.85-j, 93-b)

K_v - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_f \left(\frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$n_v=1$; $K_f=1$ ([3], 2.2-j, 35-b)

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{335} \right)^1 = 2,2$$

K_{nv} - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{nv}=0.8$ ([3], 2.5-j, 37-b)

K_{uv} - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{uv} = 1$ ([3], 2.6-j, 37-b)

$$K_v = 2.2 \cdot 0.8 \cdot 1 = 1,76$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$$C_v = 332, \quad q = 0.2, \quad x = 0.1, \quad y = 0.4, \quad u = 0.2, \quad p = 0, \quad m = 0.2 \quad ([3], 2.84-j, 90-b)$$

$$V = \frac{332 \cdot 125^{0.2}}{180^{0.2} \cdot 1.5^{0.1} \cdot 0.15^{0.4} \cdot 68^{0.2} \cdot 12^0} \cdot 1,76 = 479 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 479}{3.14 \cdot 125} = 1220 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib $n = 1250$ ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 125 \cdot 1250}{1000} = 490 \text{ m/daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0,15 \cdot 1250 \cdot 12 = 2250 \text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan $S_M = 2000$ mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{2000}{12 \cdot 1250} = 0.13 \text{ mm/daq}$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$P_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

K_{mp} - to'g'rilash koeffitsenti:

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n = 0.3 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{335}{750} \right)^{0.3} = 0.78$$

$$C_p = 825, \quad x = 1, \quad y = 0.75, \quad n = 1.1, \quad q = 1.3, \quad w = 0.2 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 825 \cdot 1.5^1 \cdot 0.13^{0.75} \cdot 68^{1.1} \cdot 12}{125^{1.3} \cdot 1250^{0.2}} \cdot 0.78 = 1196 \text{ N}$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z \cdot v}{1020 \cdot 60} = \frac{1196 \cdot 490}{1020 \cdot 60} = 8,5 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0,85 = 8,5 \text{ kVt.}$$

$$8,5 \leq 8,5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 195 \text{ mm,}$$

$$y = 0,5 \left(D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0,5 \left(125 - \sqrt{125^2 - 68^2} \right) = 10 \text{ mm}$$

$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm}$. $\Delta = 3 \text{ mm}$ qabul qilamiz.

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{133}{1250} = 0,1 \text{ daq}$$

B o'rnatish Qiymatlari A o'rnatish qiymatiga teng deb olinsin.

C o'rnatish.

1-o'tish. E yuza $l=40 \text{ mm}$, $b=40 \text{ mm}$, $h=2 \text{ mm}$ o'lchamni ushlab qora frezalansin.

Dastgoh 6H12ПБ vertikal frezalash dastgohi. Ishlov berilayotgan material CT 5, $\sigma_b = 335 \text{ MPa}$.

Kesuvchi asbob torets freza $D=125 \text{ mm}$, GOST 24360-80. Kesuvchi qismi materiali T15K6, tishlar soni $z=12$ ta; Geometrik parametrlari: $\varphi=60^\circ$, $\varphi_1=5^\circ$, $\varphi_0=20^\circ$, $\lambda=+5^\circ$, $\gamma=-5^\circ$, $\alpha=12^\circ$

3. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

$$4. t = h = 2 \text{ mm}$$

2. Surish miqdori

$$S_z = 0,09 - 0,18 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78-j, 86-b)$$

$$S_z = 0,15 \text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v ;$$

T – frezani turg'unlik davri, $T=180 \text{ daq}$ ([3], 2.85-j, 93-b)

K_v - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = 1.76$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$$C_v = 332, q = 0.2, x = 0.1, y = 0.4, u = 0.2, p = 0, m = 0.2 \quad ([3], 2.84-j, 90-b)$$

$$V = \frac{332 \cdot 125^{0.2}}{180^{0.2} \cdot 1.5^{0.1} \cdot 0.15^{0.4} \cdot 40^{0.2} \cdot 12^0} \cdot 1.76 = 517 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 517}{3.14 \cdot 125} = 1318 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib $n = 1250$ ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 125 \cdot 1250}{1000} = 490 \text{ m/daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0.15 \cdot 1250 \cdot 12 = 2250 \text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan $S_M = 2000$ mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{2000}{12 \cdot 1250} = 0.13 \text{ mm/daq}$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$P_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

$$K_{mp} = 0.78$$

$$C_p = 825, x = 1, y = 0.75, n = 1.1, q = 1.3, w = 0.2 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 825 \cdot 2^1 \cdot 0.13^{0.75} \cdot 40^{1.1} \cdot 12}{125^{1.3} \cdot 1250^{0.2}} \cdot 0.78 = 889 \text{ N}$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z v}{1020 \cdot 60} = \frac{889 \cdot 490}{1020 \cdot 60} = 7.13 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0.85 = 8.5 \text{ kVt.}$$

$$7.13 \leq 8.5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 195 \text{ mm},$$

$$y = 0,5 \left(D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0,5 \left(125 - \sqrt{125^2 - 40^2} \right) = 3 \text{ mm}$$

$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm}$. $\Delta = 3 \text{ mm}$ qabul qilamiz.

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{46}{1250} = 0,02 \text{ daq}$$

D o'rnatish Qiymatlari C o'rnatish qiymatiga teng deb olinsin.

010. Vertikal frezalash operatsiyasi.

A o'rnatish.

1-o'tish. A yuza $l=58 \text{ mm}$, $b=50 \text{ mm}$, $h=2 \text{ mm}$ o'lchamni ushlab frezalansin.

1. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

2. $t=h=2 \text{ mm}$

2. Surish miqdori

$$S_z = 0,09 - 0,18 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78\text{-j}, 86\text{-b})$$

$S_z = 0,15$ qabul qilamiz

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

T – frezani turg'unlik davri, $T = 180 \text{ daq}$ ([3], 2.85-j, 93-b)

K_v - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = 1,76$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$$C_v = 332, \quad q = 0,2, \quad x = 0,1, \quad y = 0,4, \quad u = 0,2, \quad p = 0, \quad m = 0,2 \quad ([3], 2.84\text{-j}, 90\text{-b})$$

$$V = \frac{332 \cdot 125^{0,2}}{180^{0,2} \cdot 2^{0,1} \cdot 0,15^{0,4} \cdot 40^{0,2} \cdot 12^0} \cdot 1,76 = 517 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 517}{3.14 \cdot 125} = 1318 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib $n=1250$ ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 125 \cdot 1250}{1000} = 490 \text{ m/daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0,15 \cdot 1250 \cdot 12 = 2250 \text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan $S_M=2000$ mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{2000}{12 \cdot 1250} = 0,13 \text{ mm/daq}$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$P_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

$$K_{mp} = 0,78$$

$$C_p = 825, \quad x = 1, \quad y = 0,75, \quad n = 1,1, \quad q = 1,3, \quad w = 0,2 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 825 \cdot 2^1 \cdot 0,13^{0,75} \cdot 40^{1,1} \cdot 12}{125^{1,3} \cdot 1250^{0,2}} \cdot 0,78 = 889 \text{ N}$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z v}{1020 \cdot 60} = \frac{889 \cdot 490}{1020 \cdot 60} = 7,13 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0,85 = 8,5 \text{ kVt.}$$

$$7,13 \leq 8,5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 58 \text{ mm,}$$

$$y = 0,5 \left(D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0,5 \left(125 - \sqrt{125^2 - 40^2} \right) = 3 \text{ mm}$$

$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm}$. $\Delta = 3 \text{ mm}$ qabul qilamiz.

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{64}{1250} = 0,03 \text{ daq}$$

2-o'tish. C yuza $l=62 \text{ mm}$, $b=40 \text{ mm}$, $h=1.5 \text{ mm}$ o'lchamni ushlab qora frezalansin.

1. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

2. $t=h=1.5 \text{ mm}$

2. Surish miqdori

$$S_z = 0.09 - 0.18 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78\text{-j}, 86\text{-b})$$

$$S_z = 0.15 \text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v ;$$

T – frezani turg'unlik davri, $T=180 \text{ daq}$ ([3], 2.85-j, 93-b)

K_v - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = 1.76$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$$C_v = 332, q = 0.2, x = 0.1, y = 0.4, u = 0.2, p = 0, m = 0.2 \quad ([3], 2.84\text{-j}, 90\text{-b})$$

$$V = \frac{332 \cdot 125^{0.2}}{180^{0.2} \cdot 1.5^{0.1} \cdot 0.15^{0.4} \cdot 40^{0.2} \cdot 12^0} \cdot 1.76 = 532 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 532}{3.14 \cdot 125} = 1357 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib $n=1250$ ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 125 \cdot 1250}{1000} = 490 \text{ m/daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0,15 \cdot 1250 \cdot 12 = 2250 \text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan $S_M = 2000 \text{ mm/daq}$ qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{2000}{12 \cdot 1250} = 0,13 \text{ mm/daq}$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$P_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

$$K_{mp} = 0,78$$

$$C_p = 825, \quad x = 1, \quad y = 0,75, \quad n = 1,1, \quad q = 1,3, \quad w = 0,2 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 825 \cdot 1,5^1 \cdot 0,13^{0,75} \cdot 40^{1,1} \cdot 12}{125^{1,3} \cdot 1250^{0,2}} \cdot 0,78 = 667 \text{ N}$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z \cdot v}{1020 \cdot 60} = \frac{667 \cdot 490}{1020 \cdot 60} = 5,35 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0,85 = 8,5 \text{ kVt.}$$

$$5,35 \leq 8,5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 62 \text{ mm,}$$

$$y = 0,5 \left(D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0,5 \left(125 - \sqrt{125^2 - 40^2} \right) = 3 \text{ mm}$$

$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm. } \Delta = 3 \text{ mm}$ qabul qilamiz.

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{68}{1250} = 0,03 \text{ daq}$$

3-4 o'tish qiymatlari 1-2 o'tish qiymatlariga teng deb olinsin.

015. Gorizontol frezlash operatsiyasi.

A o'rnatish.

1-o'tish. K yuza $b=20\text{mm}$, $l=40$, $h=2\text{mm}$ masofani ushlab frezalansin. Universal frezalash dastgohi 6H81.

Kesuvchi asbob disk freza $D=160\text{ mm}$, GOST 1671-77. Kesuvchi qismi materiali T15K6, tishlar soni $z=18$ ta; Geometrik parametrlari: $\varphi=60^\circ, \varphi_1=5^\circ, \varphi_0=20^\circ, \lambda=+5^\circ, \gamma=-5^\circ, \alpha=12^\circ$

1. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.
2. $t=h=2\text{ mm}$

2. Surish miqdori

$$S_z=0.09-0.18\text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78\text{-j, } 86\text{-b})$$

$$S_z=0.15\text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

T – frezani turg'unlik davri, $T=240\text{ daq}$ ([3], 2.85-j, 93-b)

K_v - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v=1.04$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$C_v=332$, $q=0.2$, $x=0.1$, $y=0.4$, $u=0.2$, $p=0$, $m=0.2$ ([3], 2.84-j, 90-b)

$$V = \frac{332 \cdot 160^{0.2}}{240^{0.2} \cdot 2^{0.1} \cdot 0.15^{0.4} \cdot 20^{0.2} \cdot 18^0} \cdot 1.76 = 589\text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 589}{3.14 \cdot 160} = 1173\text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib $n=1200$ ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 160 \cdot 1200}{1000} = 628\text{ m/daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0.15 \cdot 1200 \cdot 18 = 1620\text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan $S_M=2630\text{ mm/daq}$ qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{2630}{18 \cdot 1200} = 0.11 \text{ mm/daq}$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$P_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

$$K_{mp} = 0.78:$$

$$n = 0.3 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$C_p = 261, \quad x = 0.9, \quad y = 0.8, \quad n = 1.1, \quad q = 1.1, \quad w = 0.1 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 261 \cdot 2^{0.9} \cdot 0.11^{0.8} \cdot 18^{1.1} \cdot 18}{160^{1.3} \cdot 600^{0.2}} \cdot 0.78 = 409 \text{ N}$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z \cdot v}{1020 \cdot 60} = \frac{409 \cdot 628}{1020 \cdot 60} = 4.2 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 5.8 \cdot 0.85 = 4.93 \text{ kVt.}$$

$$4.2 \leq 4.93$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 40 \text{ mm,}$$

$$y = 0.5 \left(D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0.5 \left(160 - \sqrt{160^2 - 20^2} \right) = 1 \text{ mm}$$

$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm. } \Delta = 3 \text{ mm}$ qabul qilamiz.

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{43}{1250} = 0.02 \text{ daq}$$

B o'rnatish.

1-o'tish. J yuza $b = 44 \text{ mm}$, $l = 40$, $h = 2 \text{ mm}$ masofani ushlab frezalansin. Universal frezalash dastgohi 6H81.

Kesuvchi asbob disk freza $D=160$ mm, GOST 1671-77. Kesuvchi qismi materiali T15K6, tishlar soni $z=18$ ta; Geometrik parametrlari: $\varphi=60^\circ, \varphi_1=5^\circ, \varphi_0=20^\circ, \lambda=+5^\circ, \gamma=-5^\circ, \alpha=12^\circ$

3. Kesish chuqurligi va frezlash enini aniqlaymiz.

4. $t=h=2$ mm

2. Surish miqdori

$S_z=0.09-0.18$ mm/ayl ([3], 2.78-j, 86-b)

$S_z=0.15$ qabul qilamiz

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

T – frezani turg'unlik davri, $T=240$ daq ([3], 2.85-j, 93-b)

K_v - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v=1.04$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$C_v=332, q=0.2, x=0.1, y=0.4, u=0.2, p=0, m=0.2$ ([3], 2.84-j, 90-b)

$$V = \frac{332 \cdot 160^{0.2}}{240^{0.2} \cdot 2^{0.1} \cdot 0.15^{0.4} \cdot 44^{0.2} \cdot 18^0} \cdot 1.76 = 503 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 503}{3.14 \cdot 160} = 1002 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib $n=900$ ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 160 \cdot 900}{1000} = 452 \text{ m/daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0.15 \cdot 900 \cdot 18 = 2430 \text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan $S_M=2630$ mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{2630}{18 \cdot 900} = 0.16 \text{ mm/daq}$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$P_z = \frac{10C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

$$K_{mp}=0.78:$$

$$n=0.3 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$C_p=261, \quad x=0.9, \quad y=0.8, \quad n=1.1, \quad q=1.1, \quad w=0.1 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 261 \cdot 2^{0.9} \cdot 0.16^{0.8} \cdot 18^{1.1} \cdot 18}{160^{1.3} \cdot 600^{0.2}} \cdot 0.78 = 1331N$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z \cdot v}{1020 \cdot 60} = \frac{1331 \cdot 452}{1020 \cdot 60} = 8.4 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 5.8 \cdot 0.85 = 4.93 \text{ kVt}.$$

$$8.4 \leq 4.93$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 40 \text{ mm},$$

$$y = 0.5 \left(D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0.5 \left(160 - \sqrt{160^2 - 40^2} \right) = 1 \text{ mm}$$

$$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm}. \quad \Delta = 3 \text{ mm} \text{ qabul qilamiz.}$$

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{46}{900} = 0.02 \text{ daq}$$

020. Vertikal parmalash operatsiyasi

1-o'tish. M teshik $\varnothing 6$ mm, $l=40$ mm masofda ushlab parmalansin.

Dastgoh: Vertikal parmalash daastgohi 2A135

Kesuvchi asbob va uning geometrik parametrlari: Spiral parma $D=6$ mm, kesuvchi qism material, tezkesar po'lat P6M5. Geometrik o'lchamlari

$2\varphi = 118^{\circ}; 2\varphi_0 = 70^{\circ}; \psi = 30^{\circ}; \alpha = 11^{\circ}$ ([4] 203 bet, 44 jad)

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.

$$t = D/2 = 6/2 = 3 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_0 = 0.13 - 0.19 \text{ mm/min.} \quad ([3], 2.38-j, 62-b)$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_0 = 0.15 \text{ mm/min}$ ni qabul qilamiz.

3. Parmani turg'unlik davrini aniqlaymiz.

$$T = 25 \text{ daqiqa qabul qilamiz.} \quad ([3], 2.43-j, 66-b)$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz.

$$C_v = 9.8, q = 0.40, y = 0.50, m = 0.20 \quad ([3], 2.41-j, 64-b)$$

To'g'rilash koeffitsentini topamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{lv}$$

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_r \left(\frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$$n_v = -0.9; K_r = 1 \quad ([3], 2.2-j, 35-b)$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{335} \right)^{-0.9} = 0.48$$

K_{uv} - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

K_{lv} - Teshik uzunligini xisobga oluvchi koeffitsient

$$K_{lv} = 1 \quad ([3], 2.44-j, 67-b)$$

$$K_v = 0.48 \cdot 1 \cdot 1 = 0.48$$

$$V = \frac{9.8 \cdot 6^{0.4}}{25^{0.2} \cdot 0.15^{0.5}} \cdot 1.22 = 13 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 13}{3.14 \cdot 6} = 693 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=750$ ayl/daq qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 6 \cdot 750}{1000} = 6.6 \text{ m / daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p ;$$

Burovchi moment uchun:

$$C_m = 0.0345; q=2.0; y=0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p = K_{mp}$$

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{335}{750} \right)^{0.75} = 0.54$$

U xolda:

$$M_{kp} = 10 \cdot 0.0345 \cdot 6^{2.0} \cdot 0.15^{0.8} \cdot 0.54 = 1.47 \text{ N} \cdot \text{m}$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblaymiz:

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p ;$$

$$C_p = 68; q=1.0; y=0.7; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

U xolda :

$$P_0 = 10 \cdot 68 \cdot 6^{1.0} \cdot 0.15^{0.7} \cdot 0.54 = 583 \text{ N}$$

9. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{1.4 \cdot 750}{9750} = 0.11 \text{ kvv}$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} = \frac{42}{750 \cdot 0.15} = 0.09 \text{ daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 40 + 1 + 1 = 42 \text{ mm};$$

bu yerda: $y = 1 \text{ mm}$, parmani botishi

$\Delta = 1 \text{ mm}$, parmani chiqishi, $l = 40 \text{ mm}$, teshik uzunligi.

B o'rnatish.

1-o'tish. N teshik $\varnothing 9 \text{ mm}$, $l = 10 \text{ mm}$ masofda ushlab parmalansin.

Dastgoh: Vertikal parmalash daastgohi 2A135

Kesuvchi asbob va uning geometrik parametrlari: Spiral parma $D = 9 \text{ mm}$, kesuvchi qism materiali, tezkasar po'lat P6M5. Geometrik o'lchamlari

$2\varphi = 118^\circ$; $2\varphi_0 = 70^\circ$; $\psi = 30^\circ$; $\alpha = 11^\circ$ ([4] 203 bet, 44 jad)

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.

$$t = D/2 = 9/2 = 4,5 \text{ mm}.$$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o = 0.19 - 0.26 \text{ mm/min.} \quad ([3], 2.38-j, 62-b)$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_o = 0.2 \text{ mm/min}$ ni qabul qilamiz.

3. Parmani turg'unlik davrini aniqlaymiz.

$$T = 25 \text{ daqiqa qabul qilamiz.} \quad ([3], 2.43-j, 66-b)$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz.

$$C_v = 9.8, q = 0.40, y = 0.50, m = 0.20 \quad ([3], 2.41-j, 64-b)$$

To'g'rilash koeffitsentini topamiz.

$$K_v = 0,48$$

$$V = \frac{9.8 \cdot 9^{0.4}}{25^{0.2} \cdot 0.2^{0.5}} \cdot 0,48 = 13 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 13}{3.14 \cdot 9} = 470 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=400$ ayl/daq qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 6 \cdot 750}{1000} = 6.6 \text{ m / daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

Burovchi moment uchun:

$$C_m = 0.0345; q = 2.0; y = 0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p = 0.54$$

U xolda:

$$M_{kp} = 10 \cdot 0.0345 \cdot 9^{2.0} \cdot 0.2^{0.8} \cdot 0.54 = 4.16 \text{ N}\cdot\text{m}$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblaymiz:

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_p = 68; q = 1.0; y = 0.7; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

U xolda :

$$P_0 = 10 \cdot 68 \cdot 9^{1.0} \cdot 0.2^{0.7} \cdot 0.54 = 1071 \text{ N}$$

9. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{1.4 \cdot 750}{9750} = 0.11 \text{ kvv}$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} = \frac{12}{400 \cdot 0.2} = 0.07 \text{ daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 40 + 1 + 1 = 42 \text{ mm};$$

bu yerda: $y = 1$ mm, parmani botishi

$$\Delta = 1 \text{ mm, parmani chiqishi,} \quad l = 40 \text{ mm, teshik uzunligi.}$$

2-o'tish. N teshik $\varnothing 11$ mm, $l = 10$ mm masofda ushlab zenkerlansin. Kesuvchi asbob: zenker $D = 11$ mm, kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5.

Kesish chuqurligini belgilash.

$$t = \frac{D-d}{2} \text{ mm.} \quad t = \frac{11-10}{2} = 1$$

2. Surish qiymatini aniqlash.

$$S_o = 0.5-0.6 \text{ mm/ayl.} \quad ([3], 2.39-j, 63-b)$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_o = 0.57$ mm/ayl ni qabul qilamiz.

3. Zenkerni turg'unlik davrini aniqlash.

$$T = 30 \text{ daqiqa qabul qilamiz.} \quad ([3], 2.43-j, 66-b)$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlash.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v = 16.3, \quad q = 0.30, \quad x = 0.2; \quad y = 0.50, \quad m = 0.30 \quad ([3], 2.42-j, 65-b)$$

To'g'rilash koeffitsentini topish.

$$K_v = 0.48$$

$$v = \frac{16.3 \cdot 11^{0.3}}{30^{0.3} \cdot 1^{0.2} \cdot 0.57^{0.5}} \cdot 0.48 = 9 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 14}{3.14 \cdot 11} = 255 \text{ ayl/min}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib haqiqiy aylanishlar chastotasi $n = 275$ ayl/daq qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{\text{hak}} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 11 \cdot 275}{1000} = 9 \text{ m/daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_m = 0.09; \quad q = 1.0; \quad x = 0.9 \quad y = 0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p = 0.54$$

$$M_{kp} = 10 \cdot 0.09 \cdot 11^1 \cdot 0.57^{0.8} \cdot 0.54 = 3.4$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblash

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p ;$$

$$C_p = 67 ; q = - ; y = 0,65 ; x = 1,2 ; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$P_0 = 10 \cdot 67 \cdot 11 \cdot 0.57^{0.65} \cdot 0.54 = 251$$

9. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} \cdot n}{9750} = \frac{3.4 \cdot 275}{9750} = 0,1 \quad \text{kvt};$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} \quad \text{daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 10 + 1 + 1 = 12 \text{ mm};$$

bu yerda: $y = 1 \text{ mm}$, zenkerni botishi

$\Delta = 1 \text{ mm}$, zenkerni chiqishi

$l = 10 \text{ mm}$, teshik uzunligi.

$$T_{as} = \frac{12}{195 \cdot 0,57} = 0,08 \quad \text{daq}$$

3-o'tish. N teshik $\varnothing 12 \text{ mm}$, $l = 10 \text{ mm}$ masofda ushlab razvertkalansin.

Kesuvchi asbob: razvyertka $D = 12 \text{ mm}$, kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5.

Kesish chuqurligini belgilash.

$$t = \frac{D-d}{2} \quad \text{mm.} \quad t = \frac{11-12}{2} = 0.5$$

2. Surish qiymatini aniqlash.

$$S_o = 0.9 \text{ m/ayl.} \quad ([3], 2.39-j, 63-b)$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_o = 0.96 \text{ mm/ayl}$ ni qabul qilamiz.

3. Razvertkani turg'unlik davrini aniqlash.

$$T = 40 \text{ daqiqa qabul qilamiz.} \quad ([3], 2.43-j, 66-b)$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlash.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$C_v=10.5$, $q=0.30$, $x=0.2$; $y=0.65$, $m=0.40$ ([3], 2.42-j, 65-b)

To'g'rilash koeffitsentini topish.

$$K_v = 0.48$$

$$v = \frac{10.5 \cdot 12^{0.3}}{80^{0.2} \cdot 0.5^{0.2} \cdot 0.96^{0.5}} \cdot 0.48 = 3m / daq$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 3}{3,14 \cdot 12} = 76 \text{ ayl} / \text{min}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=68$ ayl/daq qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xak} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 12 \cdot 68}{1000} = 2.5 / daq$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p ;$$

$$C_m = 0.09; q=1.0; x=0.9 \quad y=0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p = 0.58$$

$$M_{kp} = 10 \cdot 0,09 \cdot 12^1 \cdot 0.96^{0.8} \cdot 0,58 = 6$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblash

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p ;$$

$$C_p = 67 \quad ; q = - \quad ; y = 0,65 \quad ; x = 1,2; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$P_0 = 10 \cdot 67 \cdot 12 \cdot 0.96^{0.65} \cdot 0.58 = 378$$

9. Kesishdagi quvvat :

